



PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARNING JORIYLANISHINI TASHKIL ETISH

Bibinor Normurodova

Toshkent Amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14879311>

Abstract: In recent years, a lot of work has been carried out in our country, especially related to the educational process. As a result of this, modern methods of teaching, innovative pedagogical technologies, and other educational systems have been introduced in all educational institutions, vocational schools, general secondary and secondary special educational institutions, Hies. Our state creates a lot of conditions for our youth, regardless of their field.

Key words: Innovation, education, pedagogical process, modern, technological process, new ideas, socio-pedagogical, knowledge, skills and competence. and we will be the reason for them to become a potential staff with qualifications. Also, it is impossible for every pedagogue not to use innovative pedagogical technologies in educational processes. First of all, let's talk about the word "innovation". The word "innovation" means "innovation" when translated from the English language. In terms of content and meaning, the concept of innovation represents an activity aimed at changing the internal structure of a specific system. The following are the main manifestations of innovation: - new ideas; - specific goals aimed at changing the system or direction of activity; - unconventional approaches; - unusual initiatives; - advanced working methods;

Абстрактный: За последние годы в нашей стране проведена большая работа, особенно в сфере образовательного процесса. В результате во всех учебных заведениях, профессиональных училищах, общеобразовательных и среднеспециальных учебных заведениях, вузах внедрены современные методы обучения, инновационные педагогические технологии и т.д. Наше государство создает массу условий для нашей молодежи, несмотря ни на что. своей области.

Ключевые слова: Инновации, образование, педагогический процесс, современный, технологический процесс, новые идеи, социально-педагогические, знания, навыки и компетентность, и мы будем причиной того, что они станут потенциальным персоналом с квалификацией. Также невозможно, чтобы каждый педагог не использовал инновационные педагогические технологии в образовательном процессе. Прежде всего, поговорим о слове «инновация». В переводе с английского языка слово «инновация» означает «инновация». По содержанию и смыслу понятие инновации представляет собой деятельность, направленную на изменение внутренней структуры конкретной системы. Основными проявлениями инноваций являются: - новые идеи; - конкретные цели, направленные на изменение системы или направления деятельности; - нестандартные подходы; - необычные инициативы; - передовые методы работы.

Annotatsiya: So'ngi yillarda mamlakatimizda ayniqsa, ta'lim jarayoniga oid ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasi o'laroq, barcha o'quv yurtlarida, kasb-hunar maktablari, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim dargohlari, OTM larida o'qitishning zamonaviy usullari, innovatsion pedagogik texnologiyalar kabi o'qitish tizimlari yo'lga qo'yildi. Yoshlarimizga qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar davlatimiz tomonidan juda ko'p shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, ta'lim, pedagogik jarayon, vzamonaviy, texnologik jarayon, yangi g'oyalar, ijtimoiy-pedagogik, bilim, ko'nikma va malaka Bugungi kunda bizning eng katta va oliy maqsadimiz yoshlarimizni kelajakda bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan salohiyatli kadr qilib yetishishiga sababchi bo'lishimizdir. Shuningdek, ta'lim jarayonlarida albatta, har bir pedagog innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanmasligining iloji yo'q. Avvalo, innovatsiya so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, innovatsiya so'zi lug'aviy jihatdan "Innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (innovation) "yangilik kiritaman" degan ma'noni anglatadi. Mazmunan va ma'no jihatidan olib qaraydigan bo'lsak, tushuncha negizida innovatsiya tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi. Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari quyidagilar sanaladi: - yangi g'oyalar; - tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar; - noan'anaviy yondashuvlar; - odatiy bo'lmagan tashabbuslar; - ilg'or ish uslublari;



Ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifatini ko'rsatib beruvchi ilg'or, har tomonlama ilmiy – metodik jihatdan asoslab berilgan uslublarning – yangi pedagogik texnologiyalarning maqsadi - Respublikamizning ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan yosh istiqbolli pedagog kadrlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatish, pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini o'quv-tarbiya jarayonida qo'llay olishga o'rgatish, shuningdek, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berishdan iborat. O'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ulardan unumli natija ola bilish pedagogdan katta salohiyat hamda mahorat talab etadi.

O'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loyixalanadi, kutilayotgan yakuniy natija — ijobiy sifat uzgarishi kafolatlanadi, ukuv jarayonining takrorlanuvchi sikli yaratiladi, tezkor qaytuvchi aloqa vujudga keladi yoki o'quv maqsadlari, o'quv jarayoniga kerakli tuzatishlar kiritilib borilaveradi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'l-an'iq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Ta'limda innovatsion jarayonlar innovatsion kasb-hunar va pedagogik ta'limda amaliyotga tatbiq etiladi, uning maqsadi ta'lim, ishlab chiqarish, iqtisodiyot va jamiyatda innovatsion jarayonlarni amalga oshirishga qodir ilmiy tafakkur uslubiga ega, rivojlangan kasbiy madaniyatga ega, barkamol mutaxassisni tayyorlashdir.

Innovatsiya - bu ta'lim tizimiga individual qismlar, tarkibiy qismlar va umuman ta'lim tizimining xususiyatlarini yaxshilaydi, barqaror elementlarni (yangiliklarni) kiritadi, ataylab o'zgartiradi. Pedagogik innovatsiyalarning mezonlari yangilik, optimizm, samaradorlik, kontseptuallik, izchillik, insonparvarlik, an'ana bilan uzviylik, ilmiy tus va ilmiy-uslubiy ta'minotning etarliligi, amalga oshirish va tarqatish uchun shart-sharoitlar sifatida infratuzilmaning mavjudligidir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- Talabaning dars davomida befarqi bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- Talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- Talaba talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilish

Texnologiya tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi: - samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish; - uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv (jadal), mumkin qadar, ilmiy asosda qurish; - talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish; - o'qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo'qotish; - ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmash; - texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqalar. Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida, bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi. Amal – o'qituvchining sinfda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajargan ishlar yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi. Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya-ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba, ta'lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab



oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada. Zamonaviy pedagogik texnologiyani pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Zamonaviy pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'quv-tarbiya jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum bir pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi.

"Innovatsion ta'lim" deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;
- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o'quv-metodik ta'minotiga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;
- o'quv reja va o'quv dasturlariga;
- o'quvchi va tarbiyachi faoliyatiga bog'liq. Bugungi pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilar ekan. Uning bilimdonligi darajasi masalasi ham o'ta muhi

Amaliyotda qullanilayotgan pedagogik texnologiyalarni 12 turga ajratib urganishimiz mumkin: 1. Kullanish darajasi buyicha (umum pedagogik; xususiy predmetli; lokalli, modulli, tor pedagogik). 2. Falsafiy asos buyicha (materializm, idealizm, dialektik, metafizik, insonparvar, noinsonparvar, antroposofiya, teosofiya, pragmatizm, ekzistensializm, sionizm). 3. Ruxiy rivojlanishning yetakchi omillari buyicha (biogenli, sotsiogenli, psixogenli, idealistik). 4. Uzlashtirish konseptsiyasi buyicha (assotsativ-reflektorli, rivojlantiruvchi, bixevioristik, geshtalttexnologiya, suggestiv, neyrolingvistik). 5. Shaxs tuzulmasiga yunaltilganlik buyicha (informatsion, operatsion, xayajonli-axlokiy, uz-uzini rivojlantiruvchi, evristik va amaliy). 6. Mazmuni va tuzilish xarakteri buyicha (ta'limiy va tarbiyaviy, dunyoviy va diniy, umumta'lim va kasbga yunaltilgan, gumanitar va texnokratik, turlicha soxaviy texnologiyalar, xususiy predmetli xamda monotexnologiyalar va politexnologiyalar). 7. Tashkiliy shakllar buyicha (sinf-dars, mukobilli, akademik, yakka tartibli, guruxli, jamoa bulib ukish usullari, tabakalashtirilgan ta'lim). 8. Bilish faoliyatini tashkil etish va boshkarish turi buyicha (ma'ruzali klassik ukitish; audiovizual texnik vositalar yordamida ukish; „maslaxatchi tizim“ ; kitob yordamida ukitish; „repetitor“ tizimi; „dasturli ta'lim“ 9. Bolaga yondashish buyicha (avtoritar, didaktotsentrik, shaxsga yunalgan texnologiyalar, xamkorlik texnologiyasi, erkin tarbiyalash texnologiyasi, ezoterik texnologiyalar). 10. Ustuvor metodlar buyicha (reproduktiv, tushuntirish-kursatish, rivojlantiruvchi ta'lim, muammoli ta'lim, ijodiy; dasturli ta'lim, dialogli, uyinli ta'lim, uz-uzini ukitish ta'limi, informatsion ta'lim). 11. Mavjud an'anaviy tizimlarni yangilash yunalishlari buyicha 29 (munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida; bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosida; tashkillashtirish va boshkarish samaradorligi asosida; ukuv materillarni metodik va didaktik rekonstruksiyalash asosida; tabiatan monandlik, mukobillik texnologiyalari; mualliflik maktabining yagona texnologiyasi). 12. Taxsil oluvchilar toifasi buyicha (ommaviy texnologiya, olg'a odimlovchi ta'lim, tuldiruvchi; uzlashtirmovchilar bilan ishlash texnologiyalari, iqtidorlilar bilan ishlash texnologiyalari). Respublikamiz ta'lim-tarbiya muassasalarida samarali innovatsion pedagogik texnologiyalarni kullash ukuv-tarbiyaviy jarayonlarning yanada takomillashuviga, ta'lim sifatini jaxon andozalariga yetkazishga, kadrlarni yagona Davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda tayyorlashga olib keladi. Kelgusida pedagogik texnologiya nazariy va amaliy jixatdan yanada boyib boradi. Pedagogik texnologiyaning moxiyati didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishish va uni tatbiq etishni xisobga olgan xolda ta'lim-tarbiya jaraenini oldindan loyixalashtirishda namoyon bo'ladi.



Ta'limda innovatsion jarayonlar innovatsion kasb-hunar va pedagogik ta'limda amaliyotga tatbiq etiladi, uning maqsadi ta'lim, ishlab chiqarish, iqtisodiyot va jamiyatda innovatsion jarayonlarni amalga oshirishga qodir ilmiy tafakkur uslubiga ega, rivojlangan kasbiy madaniyatga ega, barkamol mutaxassisni tayyorlashdir. Yuqoridagilarni xulosa qilsak, zamonaviy pedagogik innovatsiyalarda innovatsiya pedagogik faoliyatni yangilashning yaxlit nazariy, texnologik va uslubiy tushunchasi sifatida ifodalanishi, uning belgilangan darajada bajarilishini ta'minlash, yangi bir narsani o'qitishning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllariga kiritish vositasi va jarayoni sifatida namoyon bo'ladi va tarbiya, o'qituvchi va talaba faoliyatini tashkil etadi.

Innovatsiya - bu ta'lim tizimiga individual qismlar, tarkibiy qismlar va umuman ta'lim tizimining xususiyatlarini yaxshilaydi, barqaror elementlarni (yangiliklarni) kiritadi, ataylab o'zgartiradi. Pedagogik innovatsiyalarning mezonlari yangilik, optimizm, samaradorlik, kontseptuallik, izchillik, insonparvarlik, an'ana bilan uzviylik, ilmiy tus va ilmiy-uslubiy ta'minotning etariligi, amalga oshirish va tarqatish uchun shartsharoitlar sifatida infratuzilmaning mavjudligidir.

Ilmiy-texnik taraqqiyoti jadallashuvi sharoitida ishlab chiqariladigan mahsulotlar ilmtalab, originalligi, murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajralib turadi. Mashina va jihozlar unumdorligi, ular puxtaligining ko'p marotaba oshganligi tufayli mahsulot birligiga sarf qilinadigan energiya ham bir necha marotaba kamayadi. Bu sharoitlar kadrlar tayyorlash tizimiga tegishli talablar qo'ya boshladi. Fan, texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida o'qitish tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi: a) individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish; b) original va nostandart qarorlar, ishchanlik - qobiliyatlarini rivojlantirish; v) o'qitishni individuallashtirish (o'qishga turli qobiliyatga ega bo'lgani uchun); g) bilim harakatchanligi, tanqidiy fikrlashganda moslashuvchanlik va ijod, ishlab chiqarishning zudlik bilan o'zgaruvchan sharoitiga mos epchillikni shakllantirish. Bayon etilgan, bir tomondan pedagogik texnologiyaning sodir bo'lish zaruriyatini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan u ilmiy texnik taraqqiyot jadallashuvining mahsuloti ekanligini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Toshkent "Iqtisodmoliya" 2009.
2. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi "Pedagogik kreativlik bo'lg'usi o'qituvchilarni innovatsiyon faoliyatga tayyorlash jarayoni" Andijon Respublika ilmiy-amaliy kanferensiyasi 2020-yil 2-qism
3. O.Tolipov, D.Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat T: Innovatsiya-ziyo, 2019. MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference 44
4. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi / metodik qo'llanma. Tuzuvchilar D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Holiqova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 136 bet.
5. O.Tolipov, M.Usmonboyeva, Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Fan, 2005.
6. Ollokulova F.U. VALUE RELATIONSHIPS IN YOUNG PEOPLE AND THE UNIQUENESS OF THEIR DECISION MAKING Teacher of the Department of Theory and Practical of Primary Education. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022
7. Ollokulova F.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy pedagogik ahamiyat. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2022) / ISSN 2181-1415
8. Ollokulova F.U. SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYA BORASIDAGI QARASHLARI. PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS <https://doi.org/10.5281/zenodo.7495186>
9. Ollokulova Farzona Umedillayevna. Tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik tavsifi/ Tadqiqotlar jahon ilmiy metodik jurnal/ 6-son 2-to'plam yanvar 2023. 336-339-betlar